

## “TA’LIM OLIH JARAYONIDA O’QUVCHILARNI RAG’BATLANTIRISH VA JAZOLASHNING O’QUVCHILAR PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI .”

**Karimova Dilzoda Lazizovna**

*Farg’ona Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti yo’nalishi bakalavriat talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab yoshdagi bolalar ta’lim olish jarayonida jazolash va rag’batlantirish metodlarining ta’lim olishiga bo’lgan psixologik ta’siri haqida fikr yuritilgan .

**Kalit so’zlar:** metod, rag’batlantirish , kompensatsiya, jazolash.

Ta’lim olish jarayonida o’qituvchilar va o’qituvchilar hamkorlikda bir maqsad asnosida harakat qilishadi . Bu bosqichda o’qituvchi ta’lim berish jarayonini olib borishda turli xil metodlardan foydalanadi .Metod – lotincha metodos so’zidan olingan bo’lib , tadqiqot yo’li , nazariya , ta’limot tushunchalarini anglatadi . O’qitish va tarbiyalashning real jarayonlariga xos bo’lgan ichki yo’llari ,uslublari ,vositalar majmui tushuniladi .

Rag’batlantirish – xatti-harakatlarning kuchli regulyatori bo’lib, ta’lim berish jarayonini tezlashishiga va o’quvchini o’ziga bo’lgan ishonchini oshirishiga ko’mak beradi .O’quvchining namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat qilib ko’rsatish , taqdirlash hisoblanadi . Rag’batlantirishni biz psixologik kumak dorisi desak ham bo’ladi . Chunki , qachonki biz o’quvchilarni yaxshi va chiroyli so’zlar bilan maqtaganimizda , ularning miyasida kata o’zgarish yuz beradi va , meni ham qo’limdan keladi degan fikr uyg’onadi .

Maqtovning bir nechta turlari mavjud bo’lib , ular :

Kompensatsiya – ushbu turda , bolalar yuqori darajada maqtov kumagiga muhtoj bo’lishadi . Bu turdagi bolalar hayotda har xil psixologik qiyinchiliklarga duch kelgan , ular kimgadir suyanish istagida bo’lgan bolalardir.

Ishonch berish – bunday bolalar iqtidorli va talabchan bolalar bo’lishadi .Biroq ular shirin so’zga muxtoj. Ularga og’zaki maqtov ham katta yordamdek tuyuladi .

Orzu va hayol qilishiga yordam berish – agar biz bolalarni chinakamiga rag’batlantirmiqchi bo’lsak , ushbu metoddan doimo ta’lim jarayonida foydalanishimiz kerak . O’quvchilarning kichik yutuqlarini ham katta yutuqqa erishganidek baholashimiz kerak . Ularni bu yutuqlarini biz kelajagiga bog’lashimiz , uni bundan ham katta yutuqlar kutayotganini aytishimiz darkor .

Bilvosita tasdiqlash –ushbu metodda rag’batlantirish jarayoni to’g’ridan – to’g’ri emas , balki bilvosita bo’ladi . Ya’niki, ikki kishi suhbat quradi va uchinchi shaxs ( o’quvchi ) haqida gaplashishlari kerak bo’ladi . Bu suhbatda o’quvchining yaxshi fazilatlarini , bilimini , iqtidorini , qobilyatini gapirish darkor . Eng asosiysi , bu suhbatni o’quvchiga eshitaladigan darajada baland ovoz bilan maqtash kerak . Ushbu metod , boshqalariga nisbatan ancha samarali hisoblanadi . Chunki , o’quvchi o’z o’y- hayollari yordamida bu suhbatni aniq tahlil qila oladi va uzoq vaqtgacha yodidan chiqarmaydi .

Rag’batlantirishga , ayniqsa , yetarli darajada qat’iyatli bo’lmagan bolalar ko’proq muhtoj bo’ladi .

Jazolash metodiga keladigan bo’lsak , ushbu metod ko’p vaqtlarda rag’batlantirishdan ko’ra ko’proq foyda olib keladi .Chunki , jazolangan o’quvchi qolgan o’quvchilarga nisbatan ko’proq mas’uliyatni his qiladi . Pedagogika nazariyasi va amaliyotida jazolash metodiga nisbatan qarashlar bir – biriga zid . Qadimdan otabobolarimiz bu metodning samarasi kam ekanligini aytib kelganlar . Biroq , shu bilan birga , jazolash shunday tarbiya metodiki , u bolani ijtimoiy mayor va qoidalarga , odob va axloqqa zid salbiy xatti-harakatlardan qaytarish , uning xulqini o’zgartirish , berilgan vazifalarni o’z vaqtida tayyorlashga undash usuli sifatida qo’llanilib kelinadi.

Jazolash metodining 4 ko’rinishlari mavjud:

Tanbeh berish

2.Uyaltirish

3.Ko’proq uy vazifalari berish

#### 4.Ogohlantirish

Jazo berishda ham pedagogik talablarga amal qilish kerak . Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib , o'quvchilarning aybiga , salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim .

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin .

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berishda jazolash va tanbex berish usulidan birdek foydalanishi zarur bo'ladi .

O'quvchilarning harakter va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ular qaysi usuldagi rag'batlantirishga muhtoj ekanligini aniqlashi zarur.

Jazolash metodidan foydalanganda aslo uning ruhiy holatiga yomon ta'sir ko'rsatadigan usullardan foydalanmasligi kerak .

Har dars yakunida ularga ishonishi aytishi , keyingi darslar uchun uyda yanada ko'proq darsga tayyorlanishlarini bilishini takidlab o'tishi kerak .

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
4. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. «Ma'rifat gulshani» gazetasi, 6 (11) – 2007 yil.
5. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182 betlar.
6. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2006, 250 bet.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, 270 bet.
8. Quronov M. Otalar kitobi.
9. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006, 284 bet.
10. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.
11. 11.M.Xo'jamberdiyev . Umumiy pedagogiga .